

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK” fakulteti

“YER USTI TRANSPORT TIZIMLARI” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO`YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: Avtomobillarning salon inter`yeri va ularga texnik xizmat ko`rsatish.

Bitiruvchi: "Yer usti transport tizimlari va ularni ekspluatatsiyasi" yo`nalishi 4-kurs 080-11-guruh talabasi:

_____ **D.Usmanov**

Fakultet dekani: _____ **N.Xalilov**

Kafedra mudiri: _____ **N.Ikromov**

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: _____ **A.G`iyasiddinov**

Maslahatchilar: _____ **A.Yuldashev**

_____ **A. Raximov**

Andijon – 2015 yil

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK” fakulteti

“YER USTI TRANSPORT TIZIMLARI” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH BO`YICHA

T O P S H I R I Q

Usmanov Doniyor

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: Avtomobillarning salon inter`yeri va ularga texnik xizmat ko`rsatish.

Institut bo`yicha 2014 yil 26-noyabrdagi 194-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun ma`lumotlar:

Mavzu bo`yicha boshlang`ich ma`lumotlar, statistik kuzatishlar, soha bo`yicha qonun va qarorlarni bajarilishi kabilar.

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma`lumotlar:

1) Kirish. Bu qismda talaba soha bo`yicha Respublikamizda erishilayotgan yutuqlar, transport vositalarning konstruktiv o`zgarishlari va avtomobilsozlik sanoatining rivojlanish bosqichlari to`g`risida ma`lumotlar beradi.

2) Mavzuning dolzarbligi. Bu qismda talaba mavzuni hozirgi kundagi dolzarbligi va uning kelesajakdagi samarasi yoritiladi.

3) Adabiyotlar sharxi. Ilmiy - texnika adabiyotlar va soha bo`yicha fan adabiyotlarining qisqacha sharxi keltiriladi.

4) Asosiy qism. Mavzuning asosiy vazifasi, umumiy tuzilishi, ishlash printsiplari kabi asosiy va nazariy ma`lumotlar keltiriladi.

5) Texnologik qism. Mavzu bo`yicha uning tayyorlanishi, qismlarga ajratilishi, ularni yig`ish jarayonlarining texnologiyalari va taklif etilayotgan konstruksiyaning loyihalari keltiriladi.

6) Iqtisodiy qism. Mavzu bo`yicha qilinayotgan loyiha yoki konstruksiyasining iqtisodiy yechimlari keltiriladi.

7) Hayot faoliyati xavfsizligi qismi. Mavzu bo`yicha vositalarni xavfsizligini ta`minlovchi asosiy shartlar, mashina va mexanizmlarning xavfli zonalar, muhofazalovchi va saqlovchi vositalari kabi ma`lumotlar keltiriladi.

8) Xulosa va takliflar. Mavzu yuzasidan yuqorida qilingan ishlar bo`yicha umumiy xulosa va takliflar keltiriladi.

**9) Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.** Mavzuni bajarish davomida foydalanilgan adabiyotlar va internetdagi veb saytlarning ro`yhati keltiriladi.

10) Ilova. Mavzu bo`yicha maxsus jadvallar, rasmlar va internetdan olingan ma`lumotlar ilova qilinadi.

4. Bitiruv malakaviy ishining chizmalari ro'yhati:

- 1) 1-chizma. Matiz avtomobilining inter'yerining qismlari.
- 2) 2-chizma. Avtomobillarni inter'yerida foydalaniladigan pardozlash materiallarga quyidagi umumiy talablar.
- 3) 3-chizma. Salon inter'yeri pol qismini texnik va kimyoviy tozalash.
- 4) 4-chizma. Avtomobilning salon inter'yeri jihozlarini bug'latib tozalovchi VAS 6189 qurilmasi.

5. Bitiruv malakaviy ishi qismlari bo'yicha maslahatchilar:

№	Bitiruv malakaviy ishining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchi-ning familiyasi
1	Kirish	05.01.2015	12.01.2015		G'iyasiddinov A
2	Mavzuning dolzarbligi	13.01.2015	30.01.201		G'iyasiddinov A
3	Adabiyotlar sharxi	02.02.2015	27.02.2015		G'iyasiddinov A
4	Asosiy qism	02.03.2015	31.03.2015		G'iyasiddinov A
5	Texnologik qism	01.04.2015	30.04.2015		G'iyasiddinov A
6	Iqtisodiy qism	01.05.2015	15.05.2015		
7	Hayot faoliyati xavfsizligi qismi	17.05.2015	30.05.2015		Raximov A
8	Xulosa va takliflar	01.06.2015	06.06.2015		G'iyasiddinov A
9	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	08.06.2015	11.06.2015		G'iyasiddinov A
10	Ilova	10.06.2015	13.06.2015		G'iyasiddinov A
11	1-chizma	02.03.2015	31.03.2015		G'iyasiddinov A
12	2-chizma	01.04.2015	30.04.2015		G'iyasiddinov A
13	3-chizma	01.05.2015	15.05.2015		G'iyasiddinov A
14	4-chizma	17.05.2015	06.06.2015		G'iyasiddinov A

6. Topshiriq berilgan sana: 05.01.2015 yil

7. Tugallangan bitiruv malakaviy ishini topshirish sanasi: 11.06.2015 yil

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: k.o`q., G'iyasiddinov A _____

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi: Usmanov D _____

Kafedra mudiri: t.f.n., N.A. Ikromov _____

MUNDARIJA

I. KIRISH	5
II. MAVZUNING DOLZARBLIGI	8
III. ADABIYOTLAR SHARXI	10
IV. ASOSIY QISM	14
IV.1. Avtomobillarning salon inter`yeri haqida tushuncha	14
IV.2. Kabina va kuzovning salon inter`yerini tuzish qoidasi	17
IV.3. Inter`yerni pardoqlash	20
IV.4. Avtomobil salonini shamollatish va isitish tizimi	23
V. TEXNOLOGIK QISM	31
V.1. Avtomobillarning salon inter`yeri va ularga texnik xizmat ko`rsatish	31
VI. IQTISODIY QISM	45
VI.1. Avtomobillarning salon inter`yeri va ularga texnik xizmat ko`rsatishni iqtisodiy baholash	45
VII. HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGI QISMI	56
VII.1. O`zgaruvchi elektromagnit maydonlarining inson organizmiga ta`siri	56
VIII. XULOSA VA TAKLIFLAR	63
IX. ADABIYOTLAR RO`YXATI	66
X. ILOVA	68

I. KIRISH

Yuksak darajada taraqqiy etgan hozirgi zamon transportisiz rivojlangan jamiyat asosini yaratib bo'lmaydi. Chunki transport har qanday ishlab chiqaruvchi kuchlarning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Xalq xo'jaligi va qishloq xo'jaliklarida yuklarni tashishda avtomobil transportining roli beqiyosdir. Bunda tabiat boyliklarini tashishda, xo'jalikning ichki va tashqi yuk aylanishlarini bajarishda va xokazolarda transport vositalari muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari transport mehnat resurslaridan oqilona foydalanishda, davlat mudofaa qudratini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi[1-4].

O'zbekiston avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uning beqiyos imkoniyatlaridan nishona, istiqbolli, kelajagi buyukligini tasdiqlovchi omildir.

Bugungi kunda "GM-Uzbekistan" avtomobil zavodida "Matiz", "Nexia DOHC", "Lasetti" va "Tacuma", "Epica", "Captiva", "Spark", "Cobalt" hamda "Malibu" rusumli avtomobillarni ham o'z konveyerlaridan chiqarmoqda. Yaqin kunlarda yana boshqa yangi rusumli avtomobillar chiqarilishi ham rejalashtirilgan.

Respublikamizdagi hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishda avtomobilsozlik sanoati va transport tizimining rivojlanishi hamda transport infratuzilmasining eng muhim yo'nalishlaridan biri magistral avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish bo'lib, bu yo'llardan yaqin va uzoq davlatlar bilan tranzit aloqalarni amalga oshirishdir.

Xalq ho'jaligining boshqa tarmoqlarida bo'lganidek, avtotransport tizimida ham yuz berayotgan katta o'zgarishlar sohada amaliy ishlar qilinayotganligidan darak beradi. Davlatimiz mustaqilligining dastlabki davrlarida avtomobilsozlik sanoatiga poydevor qo'yilib, sohaning taraqqiy eta boshlaganligi yurtimiz istiqbolining yorqin ko'rinishlaridan biridir.

Avtomobil yo'llarida harakat tartibsiz ravishda vujudga keladi. Har bir haydovchi o'ziga qulay harakat tartibini tanlaydi hamda o'zi tanlagan harakat tartibining boshqa harakat qatnashchilariga ta'siri bilan hisoblashmaydi. Shuningdek, turli rusumli avtomobillarning har xil dinamik sifati harakat tartibiga

ta'sir qilishi muqarrar. Yo'l harakatida avtomobillarning o'zaro ta'siri harakat miqdori qancha ko'p bo'lsa, shuncha orta boradi.

Yo'llarda harakatlanish xavfsizligini ta'minlash faoliyatida targ'ibot va tashviqot qilishni yanada yaxshilash, ommaviy axborot vositalari hamda keng jamoatchilik bilan mustahkam aloqa o'rnatish, yo'l harakati ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash va yo'l transport hodisalarini oldini olish borasida o'tkazilayotgan tadbirlar samaradorligini oshirish DAN boshqarmalari, davlat idoralari mehnat jamoalari, jamiyat tashqilotlari, ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, radio, televideniya) bilan yaqin hamkorlikda yuritiladi.

Lekin, har qancha targ'ibot va tashviqot ishlari olib borilmasin, agar avtomobilning xavfsizlik ko'rsatkichlari past bo'lsa, YTH kelib chiqaveradi, aholining sog'ligi buzilaveradi, avtomobilni jahon bozoridagi o'rni pasayaveraadi.

Avtomobil sanoati - mashinasozlikning bir tarmog'i; avtomobillar, tirkama va yarim tirkama yuk tashish moslamalari, avtomobillarga ehtiyot qismlar, agregatlar ishlab chiqaradi, shuningdek mototsikllar, motorollerlar, mopedlar, velosipedlar ishlab chiqaruvchi korxonalari ham Avtomobil sanoati tarkibiga kiradi. Avtomobil sanoati XIX-asr oxirida Fransiya, Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniyada vujudga keldi. XX-asr davomida bu sanoat yuqoridagi mamlakatlardan tashqari. Yaponiya, Italiya, Rossiya, Kanada, Shvesiya va boshqa mamlakatlarda ham rivoj topgan. Dunyoda har yili o'rta hisobda 46 - 53 mln avtomobil ishlab chiqariladi, shulardan yuk avtomobillari 9 - 10 mln, avtobuslar 1,4 - 1,7 mln, qolganlari yengil avtomobillar. Yengil avtomobillar ishlab chiqarishda AQShning "Jeneral Motors" (3,4), "Ford" (4,0), "Kraysler" (1,4) avtomobil monopoliyalari jahonda ishlab chiqarilgan jami yengil avtomobillarning 23,6%ni ishlab chiqaradi, Yaponiyaning "Toyota" (3,6), "Honda" (1,9), "Nissan" (2,1) monopoliyalari, Germaniyaning "Volkswagen" (2,0), "Opel" (1,7), Fransiyaning "Reno" (1,6), Italiyaning "Fiat" (1,9) kompaniyalari yengil avtomobillar ishlab chiqarishda yetakchilik qiladi. XX-asrning 80-yillaridan boshlab avtomobil konsernlari avtomobil sotish bozorlarida kattaroq joy egallash, mahsulot tannarxini kamaytirish va sifatini yuqori darajaga ko'tarish maqsadida xalqaro konsernlarga birlasha

boshlashdi. Masalan, "Ford" konserni o`ziga Yaponiyaning "Mazda", Angliyaning "Yaguar", Shvesiyaning "Volvo" konsernlarining yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan bo`limlarini kiritdi. "Folksvagen" Ispaniyaning "Seat", Germaniyaning "Audi", Chexiyaning "Shkoda" konsernlari bilan birlashdi. Bu jarayon hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. O`zbekistonda Avtomobil sanoati 90 - yillar boshidan paydo bo`ldi. Hozirgi kunga kelib 10 dan ortiq avtomobillar ishlab chiqarilmoqda.

Avtomobil yo`llarida harakat xavfsizligini tashkil etish bugungi kundagi Yo`l-transport hodisalarining oldini olish uchun ko`rilayotgan qator tadbirlarga qaramasdan ularning miqdorlarini kamayishiga erishib bo`lmayapti. Bu esa, yo`l harakati xavfsizligi muammolariga o`ta jiddiy yondashish zarur ekanligini mutaxassislar oldiga vazifa qilib qo`ymoqda [4-5].

Avtomobillar xayotimizga shunchalik kirib kelganki ularsiz turmushni tasavvur qilish qiyin. Xususan hozirgi kunda xom ashyo va tayyor mahsulotlarni tashish, ochiq usulda ko`mir va ruda qazib chiqarish, sanoat usulida uy-joy binolari va sanoat korxonalarini qurish, qishlok xo`jaligiga zarur yuklar, o`g`it va turli mahsulotlar tashish, keng iste`mol mollarini bevosita iste`molchilarga o`z vaqtida yetkazib berish va boshqa masalalarda avtomobillardan foydalaniladi.

O`zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti mashinasozlik sanoatini rivojlanish darajasiga, ishlab chiqaradigan mashinalarining sifatida, ularning texnik, texnologik, foydalanish va iqtisodiy ko`rsatkichlari bo`yicha dunyo bozorida raqobatbardoshligiga bog`liq.

II. MAVZUNING DOLZARBLIGI

Hozirgi paytlarda avtomobil zavodlarida texnik qayta qurish ketiyapti, asosiy va yordamchi ishlab chiqarishlari ixtisoslashgan va yuqori darajada tashkil etilgan yangi zavodlar quriliyapti. Alohida detallarni va yig`ma birliklarni yig`uvchi yetkazib beradigan va ishlab chiqaradigan zavodlar majmuasi yaratilmoqda. Avtomat qatorlar va ularning majmuasi, avtomobillarni yig`ish, detallarni qirqib ishlash, zagotovka olish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish vositalari joriy qiliniyapti.

Avtomobilsozlik texnologiyasida zagotovkalarni kesib ishlash butun avtomobilga sarflangan mehnatning 30 foizini tashkil qiladi. Zagotovka tayyorlashning eng yangi usullari kesib ishlashni kamaytiradi va texnologik jarayonni ancha o`zgartirib yuboradi. Zamonaviy usullar bilan tayyorlangan quyma va shtamplangan zagotovkalar ham shunday natijalar berish mumkin.

Asosiy ishlab chiqarishda samarali texnologik jarayonlar va yangi asboblarni joriy qilinmoqda. Masalan, qattiq qotishmalardan tayyorlangan ko`pqirrali, qayta charxlanmaydigan plastinkalar o`rnatilgan, yeyilishga chidamli qoplama berilgan va katta tezlikda ishlaydigan keskichlar; qattiq qotishmalardan tayyorlangan sidirgich asboblarni sidirish; o`rta qattiq sintetik metallardan tayyorlangan asboblarni bilan nafis va maromiga yetkazib ishlov berish; teshiklarni silliq qilish va boshqalar.

Mashinasozlik texnologiyasini rivojlantirishning eng zamonaviy yo`nalishlaridan biri moslashuvchan avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarini qo`llash hisoblanadi. Ma`lumki, bunday tizimlar sanoat robotlari, mikroprotsessor texnikasi va elektronika asosida yaratiladi. Bunday tizimlarda yuqori unumli uskunalarni, programma bilan boshqariladigan stanoklar ishlatiladi. O`zi turli bo`lsa ham lekin texnologiyasi va ishlov beradigan yuzasining o`lchamlari bo`yicha bitta guruhga kiradigan detallarga ishlov berish imkonini yaratadi, keskichning yeyilishini avtomat tarzda kompensatsiyalab turadi, kesuvchi asboblarni avtomat tarzda almashtiradi, asboblardan nosozliklarni ham odam ishtirokisiz o`zi topib, chora ko`radi.

Yig`uv jarayonini takomillashtirish uchun detallar va uzellarni yig`uv joyiga avtomat tarzda yetkazib beradigan konveyrlarni qo`llash lozim. Kabinalarni, kuzovlarni, metall platformalarni yig`ish jarayoni asosan payvandlash orqali amalga oshiriladi. Avtomobil ishlab chiqarishda payvandlash mehnatning 10 foizidan oshmaydi. Rux bilan qoplangan va bo`yalgan detallarni payvandlash plazmali, elektron nurli va boshqa turdagi payvand usullarni qo`llash, unumdor payvand avtomatlar va yarim avtomatlardan foydalanish avtomobilni yig`ishga talab etiladigan mehnatni kamaytiradi.

Avtomobil detallarini va yig`ma birliklarini metall parda bilan qoplash va bo`yash ishlarida qo`llaniladigan tenika jiddiy rivojlandi. Yangi lok-bo`yoq materiallarini qo`llash va ilg`or texnologiyalarni qo`llash avtomobillarning korroziyaga chidamliligini oshirdi va tashqi ko`rinishini yaxshiladi [4-5].

Salonni ichki ko`rki va xavfsizligini oshirish, qulayligini ta`minlash maqsadida zamonaviy avtomobillarda har xil konstruksiyali inter`yer detallari, qoplama va qoplamalar bilan jihozlanadi. Inter`yer tashqari issiq va sovuqdan himoyalaydi. Matiz avtomobilining saloni inter`yeri quyma plastmassalardan tayyorlanib, vintlar yoki quyma plastmassali klipslar orqali mahkamlanadi. Barcha inter`yer detallari tez va oson yechib olinishi va kerak bo`lsa boshqasiga almashtirilishi lozim.

Salonni ichki inter`yeri jilosiz (yaltiramaydigan) materiallardan tayyorlanishi va avtomobillarning xavfsizlik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, passiv xavfsizlik talablariga to`la javob berilishi belgilangan standart asosida ishlab chiqaruvchi tomonidan ta`minlanadi. Shuningdek shu talablar ichiga salon inter`yerigi texnik xizmat ko`rsatish talablari ham kiritiladi.

Shuning uchun ham men bitiruv malakaviy ishimni **“Avtomobillarning salon inter`yeri va ularga texnik xizmat ko`rsatish”** mavzusida olib, bu jarayonlar bilan yaqindan tanishishni o`z oldimga maqsad qilib oldim.

III. ADABIYOTLAR SHARXI

Bitiruv malakaviy ishimni bajarish uchun men bir nechta adabiyotlardan va manbalardan foydalandim. Quyida eng asosiy ma`lumotlar olingan adabiyotlar va manbalar hamda ulardan olingan ilmiy ma`lumotlar sharxi keltirilgan.

E.Sharaev va Q.Rasulov “Avtomobillar konstruksiyasining rivojlanish istiqbollari” ma`ruzalar matnida avtomobilsozlik tarixi, ichki yonuv dvigatellari va avtomobil, mamlakatimizda avtomobilsozlikning rivojlanish bosichlari, avtomobil va tabiatni, inson salomatligini muhofaza qilish, transport vositalarining klassifikatsiyasi, belgilanishi va texnikaviy xarakteristikasi, avtomobilning umumiy tuzilishi avtomobillar konstruksiyasining rivojlanish istiqbollari, avtomobillar tipaji, avtomobil konstruksiyasiga qo`yiladigan talablar, avtomobillar kompanovka sxemalar tahlili kabi tushunchalar yoritilib berilgan [4].

Q.M. Sidiqnazarov va boshqalar “Avtotransport sohasidagi yangiliklar” o`quv qo`llanmasida avtomobil transporti haqida tushuncha, avtomobil transportining ahamiyati va mamlakat iqtisodiyotida tutgan o`rni, avtotransport vositalarining rivojlanishini yangi bosqichlari, avtotransport vositalari ishlab chiqarish tarmog`idagi yangi yo`nalishlar, avtotransport vositalari konstruksiyasini rivojlanishidagi yangi yo`nalishlar, avtomobillarning xususiyatlarini o`zgarish yo`nalishlari avtomobillar konstruksiyasi va ishonchliligi o`zgarishini texnik ekspluatatsiyaga ta`siri transport vositalarining ekspluatatsiyasini samaradorligi, avtotransport vositalarini ekspluatatsiyasida yangi chora tadbirlarni joriy etishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlari kabi tushunchalar yoritilgan [5].

E.Fayzullaev va boshqalar “Transport vositasining tuzilishi va nazariyasi” darsligida zamonaviy avtomobillarning konstruktiv yangiliklarini va mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan “Tiko”, “Nexia”, “Damas”, “Matiz” yengil avtomobillari va “Uzotayo`l” yuk avtomobillari bundan tashqari VAZ, GAZ, KamAZ avtomobillari konstruksiyasi misolida avtomobilning asosiy qismlari, mexanizm va sistemalarining vazifasi, tuzilishi, ishlash printsipi, turlari hamda konstruktiv xususiyatlari batafsil bayon etilgan [6].

Q.X.Azizov “Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari” darsligida yoʻl harakatini tashkil etishning asosiy tamoyillari va ularni muayyan sharoitda amalga oshirish usullari, transport va piyodalar oqimlarini tavsiflovchi koʻrsatkichlar, harakat xavfsizligini taʼminlashda transport vositalarining texnik xolatining ahamiyati, haydovchi va uning harakat xavfsizligini taʼminlashdagi oʻrni, harakatni boshqarishning texnik vositalarini va yoʻl harakatini tashkil etishning amaliy tadbirlari har tomonlama fan va texnika yutuqlari hamda chet el tajribalarini hisobga olgan xolda yoritib berilgan [7].

Q.H. Maxkamov, Sh.Sh. Shoobidov. "Transport vositalarining ergonomikasi va dizayni" oʻquv qoʻllanmasining 1-qismida Antropometriya va transport vositasi, haydovchi ishchi oʻrnini tuzish, asboblarni panelini ishlab chiqish, kuzov va kabinaning ichki boʻshligʻini tuzish kabi boblar keltirilib, bularda antropometrik tavsiflar, xirotexnika, haydovchi ishchi oʻrnini joylashuvi, axborotni tasvirlovchi vositalar, oʻrindiqlar, interyerni pardoqlash mavzulari transport vositalari misolida toʻla yoritilgan [8].

Q.H. Maxkamov, Sh.Sh. Shoobidov. "Transport vositalarining ergonomikasi va dizayni" oʻquv qoʻllanmasining 2-qismida transport vositasining dizayni, transport vositasining xavfsizligi, transport vositasining shinamligini baholash kabi boblaridan iborat boʻlib, ushbu boblarda sanoat dizayni nazariyasi, transport vositalarining xavfsizlik talablaridan faol va passiv havfsizlik, himoya tizimlari, haydovchining toliqishi, iqlim shinamligi, titrash shinamligi, akustik (shovqin) shinamligi mavzulari toʻla yoritilgan [9].

O.Hamraqulov, Sh.Magdiev “Avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi” darsligida amaliy faoliyatdagi avtomobillar texnik ekspluatatsiyasining holati. Yaʼni avtomobillarga texnik xizmat koʻrsatish va joriy taʼmirlash texnologiyasi, hamda avtotransport korxonalarida ishlab chiqarishda qoʻllaniladigan texnologik jihozlar, harakatdagi tarkibga moddiy-texnik taʼminotni tashkil qilish va resurslarni tejash usullari, avtomobil transportini turli ekstremal tabiiy-iqlim va yoʻl sharoitlaridagi, asosiy ishlab chiqarish bazalaridan ajralgan holdagi, hamda maxsuslashtirilgan

harakatdagi tarkibning ekspluatatsiyasi, avtomobil transportining atrof-muhitga zararli ta'sirining yo'nalishlari va ularni kamaytirish yo'llari keltirilgan [10].

E.C. Kuznetsov, A.P. Boldin va boshqalar. “Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi” qayta ishlangan va to'ldirilgan ruscha 4-nashridan tarjima qilingan darslikda avtomobil transporti va texnik ekspluatatsiyasining asosiy rivojlanish yo'nalishlari, avtomobillarning texnik holati va ishlash qobiliyatini ta'minlash usullari, avtomobillarning sifat ko'rsatkichlari va ishonchliligi, avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi me'yorlarini aniqlash usullari, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini tashkil etish, avtomobil transportida moddiy-texnik ta'minot va resurslarni tejash, avtomobillar texnik ekspluatatsiyasining taraqqiyot istiqbollari keltirilgan [11].

E.A. Asatov, A.A. Tojiboev “Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari” o'quv qo'llanmasida transport vositalarining texnik holati, ishlash qobiliyati, qism va birikmalarning har xil omillar ta'sirida eskirishi, yeyilishi haqida tushuncha berilgan bo'lib, ularning ishonchliligi bayon etilgan hamda ekspluatatsiya jarayonida buyumlarni ishonchlilikka sinash va ishonchlilik xususiyatlari ko'rsatkichlarini qo'llash usullari yoritilgan. Shuningdek, transport vositalari ishonchliligini oshirish yo'lida ayrim konstruksion va ekspluatatsion choralar bo'yicha tavsiyalar berilgan. Diagnostik tashqi belgilar, parametrlar va me'yorlar, ob'ektning texnik holati ta'riflangan. Diagnostikaning umumiy jarayoni va texnik diagnostika vositalariga qo'yiladigan talabalar, transport vositalarini diagnostikalash usullari va diagnostikalash vositalari tasnifi hamda diagnostika samaradorligini baholash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan [12].

Anur'yev V.I. ning “Справочник конструктора-машиностроителя” ma'lumomnomasi 3-bobdan iborat bo'lib, loyihacilar foydalanishi uchun juda soda tarzda tuzilgan. Lekin bunga qaramasdan konstruksion materiallar va ularni qo'llanilish sohalari, qo'yim va qo'nimlar va ulardan foydalanish usullari, korroziya bardosh va dekorativ qoplamalar va hokazolar haqida ma'lumatlar mavjud [13].

Lukin P.P. va boshqalarning “Конструирование и расчет автомобиля” kitobida avtomobillarni hisoblash va loyihalashning asosiy yo'riqnomalari

keltirilgan. Avtomobil agregatlarining bazaviy loyihalari tahlil qilingan, ularni rivojlanish tendensiyalari, zamonaviy hisoblash usullari berilgan [14].

Dement'yev Yu.V. avtorligidagi “САИП в автомобиле-и тракторостроении” darsligida avtomobil va traktorlar, ularning elementlarini avtomatlashtirilgan loyihalash uslub va vositalari ko'rib chiqilgan, avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarni tuzish prinsiplari, klassifikasiyasi keltirilgan. Avtomobilsozlikda va traktorsozlikda qo'llanilayotgan avtomatlashtirilgan loyihalash vositalari tarkibiy tuzilmasi ko'rsatilgan [15].

G.Yo. Yormatov, O.R. Yuldashev, A.L. Hamrayev “Hayot faoliyati xavfsizligi” darsligida ob - havo sharoiti va inson faoliyati, ishlab chiqarish muhitining ob-havo sharoiti, sanoat korxonalarida shamollatish qurilmalariga qo'yiladigan asosiy talablar, changlangan havoni tozalash qurilmalari, shovqindan saqlanish, texnika vositalarida xavf - xatarlar va ulardan muhofazalanish, elektr xavfsizligi, mehnatni muxofaza qilish qonunlari va tashkiliy asoslari va yong'inni oldini olishga qaratilgan chora - tadbirlari to'g'risida kerakli ma'lumotlar berilgan [16].

Yu.Qirg'izboyev, Z.Inog'omova, T.Rixsiboyev “Texnik chizmachilik kursi” darsligida chizmalar haqida umumiy ma'lumotlar, chiziq turlari, shriftlarning yozilish tartiboti, masshtablar, chizmalarga qirqim berish usullari, burchak shtamplarining ko'rinishi, chizmalarga o'lchamlar qo'yish usullari va shu kabi ma'lumotlar berilgan [17].

Shunindek bir qator internet saytlari orqali kerakli ilmiy texnik ma'lumotlar oldim [18-21].

IV. ASOSIY QISM

IV.1. Avtomobillarning salon inter`yeri haqida tushuncha.

Inter`yer – fransuzcha “interieur” – “ichki” degan ma`noni anglatib, biron – bir ob`yektlarning ya`ni qurilish sohasidagi binolarning ichki ko`rinishi, uning pardozi kabi tushunchalarni bildiradi. Bugungi kunga kelib inter`yer tushunchasi avtomobilsozlikda ham keng qo`llanilmoqda.

Avtomobil salonida avtomobilni boshqarish qismlari, nazorat-o`lchov asboblari va ularning paneli, salonni shamollatish, issitish tizimlarini boshqarish qismlari, o`rindiqlar va boshqa qismlar joylashgan bo`lib, avtomobil salonini umumiy ko`rinishini ya`ni salon inter`yerini tashkil qiladi.



1-rasm. Yengil avtomobilining inter`yeri.

Salonni ichki ko`rki va xavfsizligini oshirish, qulayligini ta`minlash maqsadida zamonaviy avtomobillarda har xil konstruksiyali inter`yer detallari, qoplama va qoplamalar bilan jihozlanadi. Inter`yer tashqari issiq va sovuqdan himoyalaydi. Matiz avtomobilining saloni inter`yeri quyma plastmassalardan tayyorlanib, vintlar yoki quyma plastmassali klipslar orqali mahkamlanadi. Barcha inter`yer detallari tez va oson yechib olinishi va kerak bo`lsa boshqasiga almashtirilishi lozim. Matiz avtomobilining salon inter`yeri 2-rasmida berilgan.


Salonni ichki inter`yeri jilosiz (yaltiramaydigan) materiallardan tayyorlanadi. Salon tomi qoplamasi polivinil-xloridli plyonka PVX bilan qoplanib uning tagiga 3 mm qalinlikda porolon qo`yiladi. Qoplama o`ta mustahkam bo`lib, salon ko`rkiga mos keladi. Qoplamaning cheti egilgan holatda karkas qirrasiga kiritilib, tomni orqa tomonida vintlar bilan mahkamlanadi. Tomning yon paneli ABS markali plastmassalardan tayyorlanib prujinali shtir bilan mahkamlanadi. Prujinali shtir plasmassali qoplama bilan birga tayyorlangan. Shtirlar kirish uchun kuzovda teshikchalar mavjud.



2-rasm. Matiz avtomobilining inter`yerining qismlari.

1-yukxonaning yon gilofi, 2-yukxona g`ilofi, 3-o`rindi, 4-eshik g`ilofi, 5-pol usti g`ilofi, 6-o`rta ustunning pastki g`ilofi, 7-orqa konsoli (to`xtatib turish tormozi trosining qopqog`i), 8-old konsoli, 9-nazorat-o`lchov asboblar paneli, 10-tom g`ilofi, 11-salonni yukxonadan ajratib turuvchi g`ilof, 12-boshqa salon inter`yer qismlari.

Oldi va o`rta ustunlar g`iloflari ham qora rangdagi plastmassalardan tayyorlanib vintlar bilan mahkamlanadi. Salonning barcha qoplamalari yuqorida keltirilgan material va konstruksiyalarga o`xshash bo`lib uning ko`rinishi 3-rasmda berilgan.



3-rasm. Matiz avtomobilining salon inter`yeri qismlarini kuzovga mahkalanish joylari.

1-old eshikning yon g`ilofi, 2-oldingi ustun g`ilofi, 3-eshiklar g`ilofi, 4-o`rta ustun g`ilofi, 5-tom g`ilofi, 6-tom g`ilofining ushlagichi, 7-orqa tokcha g`ilofi, 8-tom paneli yon g`ilofi, 9-yukxona tagi g`ilofi, 10-ostona g`ilofi, 11-pol g`ilofi.

IV.2. Kabina va kuzovning salon inter`yerini tuzish qoidasi.

Avtomobil yoki traktorning yo`lovchi saloni yoki kabinasining inter`yerini ishlab chiqishda odamlar joylashadigan xonaning geometrik parametrlarini aniqlash, unda o`rindiqlarni yetarlicha qulay joylashtirish va ichki yuzalarni pardozlashni bajarish kerak. Avtomobil yoki traktor kabinasining ichki bo`shlig`ini tuzish bilan shug`ullanayotgan konstruktor, murakkab va ziddiyatli vazifani yechadi. U bir tarafdin bu bo`shliqni kamaytirishga intilishi kerak, chunki o`shanda mashinani tayyorlash uchun materiallar kamroq kerak bo`ladi, ishlab chiqilayotgan obyekt yengil va arzon bo`ladi. Boshqa tarafdin kabina yoki kuzovdagi inson yetarlicha shinamlik bilan ta`minlangan, eng avvalo bu mashinani boshqarish uchun yoki undan yo`lovchi sifatida foydalanish uchun qulay vaziyatda bo`lishi kerak.


Yengil avtomobil, avtobus va traktorning ichki bo`shlig`i jiddiy farq qiladi, shuning uchun bu obyektlarga taalluqli bo`lgan savollarni ketma-ket ko`rib chiqamiz.

Yengil avtomobil salonining tuzilishi. 4-rasmda salonning yon proyeksiyasi sxemasi ko`rsatilgan. Haydovchining kuzov elementlariga nisbatan vaziyati H1 nuqtaning koordinatalari bilan (rasmda a va g) aniqlanadi. Haydovchini joylashtirish oldingi mavzularda ko`rib chiqilgan. Shuning uchun bu yerda, orqa o`rindiqda bo`lgan yo`lovchini joylashtirishni tahlil qilamiz. Oldingi o`rindiqdagi yo`lovchi haydovchiga o`xshash joylashadi.

Faraz qilamiz, haydovchining o`rindig`i eng chetki orqa vaziyatida joylashgan, o`rindiqning shakli va suyanchiq qalinligi aniqlangan. Joylashtirish chizmasida 95- representativlik darajasidagi yo`lovchining ikki o`lchovli manekenini shunday ko`rinish bilan joylashtirishga harakat qilinadiki, uning tizzalari oldingi o`rindiqning orqasiga tiralmasin, o`rindiqning balandligi esa qulay o`tirish uchun yetarli bo`lsin va H2 nuqtadan tomgacha bo`lgan masofaning ortiqcha kamayishiga olib kelmasin. Vazifani soddalashtirish uchun quyida bayon qilingan tavsiyalardan foydalanish mumkin.

O`rta sinfdagi avtomobil uchun ushbu o`lchamlarni qabul qilish mumkin (4-rasmga qarang): b - 650 mm; d - 345 mm; f - 850 mm. O`lcham h bunday holda 800

mm ga yaqin bo`ladi. Albatta, bu yerda taxminiy o`lchamlar ko`rsatilgan, ularning aniq qiymatlari haqiqiy joylashtirishda kuzovning mo`ljallangan silueti (shakli), haydovchi o`rindig`ining balandligi va boshqa omillarni hisobga olgan holda, hammasidan avval esa – avtomobilning sinfidan kelib chiqadi. H1 va H2 nuqtalarning koordinatalari o`tirayotgan inson og`irligidan o`rindiq yostig`i va suyanchig`ini deformatsiyalanishini hisobga olib aniqlanadi. Kichik avtomobilning joylashishini tuzishda yo`lovchi o`rindig`i haydovchining suyanchig`iga yaqinroq joylashtirilgan bo`ladi va 50-prezentativlik darajasidagi manekendan



foydalanilgan bo`lishi mumkin.

4 - rasm. Yengil avtomobil salonining sxemasi.

Mo`ljal uchun oldingi o`rindiqqa tegishli o`lchamlarni ham ko`rsatamiz: a - 260 mm; g - 800 mm; e - 875 mm.

O`rindiqlarning chuqurligi odatda 480...520 mm ni tashkil etadi, yo`lovchining orqasi tegib turgan suyanchiqning haqiqiy balandligi - 540...600 mm (haydovchi o`rindig`i uchun chuqurlik 450...500 mm, suyanchiqning haqiqiy balandligi esa - 500... 560 mm).

Keltirilgan joylashtirish sxemasiga taalluqli hamma o`lchamlarni eng kam ruxsat etilgan deb hisoblash kerak.

Turli sinflardagi avtomobillar joylashish o`lchamlarining statistik tahlili shuni ko`rsatadiki, haydovchining o`tirishini aniqlaydigan bo`ylama o`lchamlar,

mashinalar sinfiga ko'p bog'liq emas yo'lovchi o'rindig'iga taalluqli o'lchamlar esa, sinf oshishi bilan ancha o'sadi [6-8].

1-jadval

Yengil avtomobillar o'rindiqlarining tavsiya etilgan kengliklari
(AQSh standartining tavsiyalari)

O'rindiq kengligi, mm	Avtomobillar			
	Kichik sinf	Past o'rta sinf	Baland o'rta sinf	Oliy sinf
Oldindagi:				
- yelka sathida	1260-1350	1360-1380	1370-1415	1420-1490
- bel sathida	1200-1300	1360-1380	1370-1415	1400-1540
Orqadagi:				
- yelka sathida	1265-1300	1360-1380	1355-1410	1400-1490
- bel sathida	1200-1300	1320-1370	1310-1400	1360-1520

4-rasmga mos ravishda o'tkazilgan qurishlar asosan yo'lovchi salonining yon proyeksiyasini aniqlashga imkon beradi. Salonning va shu bilan birga avtomobilning kengligi o'rindiqlar kengligiga jiddiy bog'liq bo'ladi. 1-jadvalda har xil sinflardagi avtomobillar uchun (Amerika standartiga mos ravishda) o'rindiqlarning tavsiya qilinayotgan kengligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

IV.3. Inter`yerni pardoqlash.

Avtomobillarning inter`yerini yaxshi pardoqlash haydovchi va yo`lovchilarda himoyalanganlik, badastirlik va shinamlik tuyg`usini keltirib chiqaradi, faol xavfsizlikni oshirishga yordam beradi. Passiv xavfsizlik nuqtayi nazaridan, inter`yer qismlariga, yo`1-transport hodisalarida shikastlanishni kamaytirishga yo`naltirilgan, ma`lum talablar qo`yiladi, bu talablar standartlar (GOST R41.21-99, BMT YIQ № 21 qoidasi) bilan belgilab qo`yilgan. Me`yorlarda zarb tushishi mumkin sohalar va zarb quvvatining tarqalishi bo`yicha bu sohalarga qo`yilgan talablar ko`rsatiladi. Inter`yerning chiqib turadigan qismlari uchun eng kam gabarit o`lchamlar va qirralarining bukilish radiuslari oldindan aytib qo`yiladi.

Bu bo`limda inter`yerning ayrim qismlarining konstruktiv bajarilishi ko`rib chiqilmaydi, faqat ba`zi umumiy xususiyatlarda to`xtaladi.

Inter`yerni pardoqlash uchun ko`pincha sintetik materiallar, avvalambor har xil yumshoq va qattiq pardalar ko`proq qo`llanadi. Qimmat avtomobillarda tabiiy teri, daraxtning qimmatli turlari, tabiiy yoki kombinatsiyalangan tolalardan tayyorlangan gazlama matolardan foydalaniladi.

Avtomobillarni inter`yerida foydalaniladigan pardoqlash materiallarga quyidagi umumiy talablar qo`yiladi:

- yuqori estetik sifatlar, aniqrog`i, sifat va narxning eng yaxshi nisbati;
- kerakli shovqindan himoyalash va shovqin yutish xususiyati;
- foydalanishda mumkin bo`lgan harorat o`zgarishlariga bardoshliligi;
- yuzasining eng kam nur qaylarishi (ayniqsa asboblarning panelining yaqinidagi qismlarda yorug`lik shu`lalarini paydo bo`lishi kerak emas);
- ifloslanishga bardoshlilik va uni oson tozalash imkoniyati;
- yeyilishga bardoshlilik (bu ayniqsa polning qoplamasiga taalluqli bo`ladi);
- materialning yuzasi baland haroratda yopishqoq bo`lishi kerak emas;
- past alanganish va kichkina tezlikda yonish; yonishda zaharli gaz ajralishi kerak emas.

Inter'yerning ko'p qismlari (asboblar paneli, eshiklarning qoplama ichki panellari, tirsakqo'ygichlar, quyoshga qarshi to'siq (koziriyok)lar va boshqalar) ko'piradigan materiallardan shakl berish yo'li bilan tayyorlanadi. Ommaviy ishlab chiqarishda buning uchun metall press-formalar (juda qimmat)dan foydalaniladi. Ularning ishchi yuzasida, qism yuzasida olinishi istalgan fakturaning (misol uchun, tabiiy terining, apelsin po'stining va shunga o'xshashning) bo'rtma izi tushurilgan. Press-formaga bo'lgusi qismning metall sinch (karkas)i qo'yiladi, u yopiladi, keyin unga ko'piradigan, qattiqlashadigan tarkib yuboriladi, press-formaning bo'rtma rasmi yuzada iz qoldiradi. Qo'llanayotgan ko'piradigan materialning xususiyati shunaqaki, press-formaga bevosita tutashayotgan yupqa yuza qatlam yetarlicha qattiqlashadi va qismning tashqi qoplamasini hosil qiladi.

Kichik seriyali ishlab chiqarishda texnologik jarayon boshqacha bo'ladi. Bo'lgusi qismning yog'och yoki plastmassa modeli qilinadi. U vakuum-shakl beruvchi mashinaga joylashtiriladi, oldindan isitilgan va yumshatilgan parda bilan yopiladi va model tagidan jadallik bilan havo chiqarib olinadi. Parda model atrofida zich joylashadi va bo'lgusi qismning tashqi pardasi sovishdan keyin yuzaga keladi. Qoliplash pardasi 1 mm atrofida qalinlikka ega bo'ladi, uning tashqi yuzasida esa, tayyor qismda olinishi kerak bo'lgan, faktura rasm bor bo'ladi. Keyin bu qobiq parda modelning "iziga" (uning epoksid yoki poliefir smola yordamida olish mumkin) qo'yiladi, unga qismning metall sinchi solinadi, qopqoq bilan yopiladi va ko'piradigan material bilan to'ldiriladi. Ko'pikning qotishi vaqtida parda unga yopishadi, tayyor qism yuzaga keladi.

2-jadval

Rangning inson organizmiga ta'siri

Rang	Arterial bosim	Puls va nafas olish chastotasi	Hissiyotlar	Reaksiya vaqti	Ish qobiliyati
Qizil	Ortadi	Tezlashadi	Qo'zg'atadi, rag'batlantiradi	Kamayadi	Dastlab (20 minutgacha) oshadi, keyin 50% dan ko'proq pasayadi

To`q sariq	Biroz ortadi	Biroz tezlashadi	Qo`zg`atadi , tetiklash-tiradi	Biroz kamayadi	Shuning o`zi, lekin kamroq ifodalangan
Sariq	O`zgar-maydi	O`zgarmaydi	Muvozanat-laydi	O`zgar-maydi	O`zgarmaydi
Havo-rang	Sal-pal pasayadi	Sal-pal sekin-lashadi	Tinchlan-tiradi	O`zgar-maydi	Biroz oshadi
Ko`k	Pasayadi	Sekinlashadi	Biroz tormozlaydi	Sal-pal sekin-lashadi	3...9% ga oshadi
Binafsha rang	Pasayadi	Sekinlashadi	Ezadi	Sekin-lashadi	Aniq pasayadi

Inter`yerni pardoqlash uchun materiallar tanlashda estetik omillarga, xususan, inter`yerning rang yechimiga katta e`tibor beriladi.

Rang - bu jismlarning, qaytarilayotgan yoki chiqarilayotgan ko`zga ko`rinadigan nurlanishning spektral tarkibi va jadalligiga mos ravishda, ma`lum ko`rish sezgilari keltirib chiqarish xususiyatidir. Hamma ranglar axromatik va xromatik turlarga bo`linadi. **Axromatiklar** - oq, qora va hamma oraliq kulrang ranglar. **Xromatiklar** - spektral ranglar, ular orasidagi hamma o`tishlar va tuslar bilan.

Ma`lumki, rang inson organizmining har xil funksiyalariga katta ta`sir ko`rsatadi. Buni 2-jadvalda tushuntiriladi.

Inter`yerni pardoqlash uchun asosiy ranglarni tanlashda ularni avtomobil yoki traktorning tashqi, bo`yoq rangi bilan bog`lab olib borishga harakat qilish kerak. Odatda, yengil avtomobillar chiqaruvchi firmalar xaridorga 10... 15 xil avtomobilni bo`yash variantlarini va o`nlab variantlarda inter`yerning rang yechimini taklif qiladilar. Bu firma mahsulotining sotilishini oshiradi. Kuzov yoki kabinaning oldingi qismida joylashtirilgan inter`yer detallari uchun odatda qora axromatik ranglardan foydalaniladi, bu haydovchining diqqatini yo`lda jamlashiga yordam beradi [8-9].

IV.4. Avtomobil salonini shamollatish va isitish tizimi.

Isitish tizimi avtomobil saloni ichida harorat pasayganda, salonni normal haroratda ushlab turish, shamollatish tizimi esa havo harorati ko'tarilganda salonni shamollatib turish uchun xizmat qiladi 5-rasm. Ikkala tizim konstruktiv tuzilishi jihatidan bir-biriga bog'liq bo'lib, boshqaruvi avtomobil paneliga joylashgan.


Isitish tizimi dvigatelni sovitish tizimiga ulangan bo'lib, richag orqali jo'mrak ochilgach, issiq suv isitgichni isitadi. Isitgichdan chiqayotgan harorat parrak yordamida isigan havoni salonga yo'naltiradi. Havo oqimining yo'nalishi havo to'siqchasini boshqarish richagi orqali boshqariladi.



5-rasm.

Parrakni boshqarish dastagini o'ngga buraganda, tros harakatga keladi va havo haroratini ko'tarishni ta'minlaydi. Dastak qizil rangga kelganda issiq havo


kelishi boshlanadi. Parrakni har qanday haroratda ham har xil tezlikda aylanishini ta'minlash mumkin. Matiz avtomobilining isitish va shamollatish tizimining ishlashi boshqa rusumli avtomobillardan deyarli farqi yo`q, faqat tuzilishi jihatdan farqi bo`lib, uni 6-rasmda ko`rish mumkin.



6-rasm. Matiz avtomobilining isitish, shamollatish va sovitish tizimini boshqarish tizimi.

1-isitish, shamollatish va sovitishni boshqarish tizimining qismlarga ajratilgan jamlamasi; 2-haroratni boshqarish trosi; 3-rejim tanlash trosi; 4-reyka; 5-kronshteyn; 6-tros qisqich; 7-sim ulagich; 8-shesternya jamlamasi; 9-konditsionerni ulagich; 10-korpus; 11-tirgak; 12-prujina; 13-parrak ulagich; 14-orqa oyna isitgichini ulagich; 15-havo to`siqchasi trosi (tashqi havo); 16-boshqarish paneli; 17-konditsioner ulagichi tugmasi; 18-burash dastagi; 19-qayta sovitish tugmasi (retsirkulatsiya); 20-orqa oynaning isitgichini boshqarish tugmasi;

Parrak va uning jamlamasini qismlarga ajratilgan holati 7-rasmda berilgan.




7-rasm. Parrak jamlamasining umumiy ko`rinishi.

1-parrak va uning jamlamasi; 2-plasmassali shayba; 3-parrak kulisasi; 4-parrak richagi; 5-havo kirish g`ilofi; 6-to`siq ushlagich; 7-isitgichning havo quviri;

8-parrakning havo quviri; 9-o`rta g`ilof; 10-tros qisqichi; 11-parrakning to`siqchasi; 12-qarshilik (rezistor); 13-pastki g`ilof; 14-shlang; 15-parrak motori.

Isitgich va havo taqsimlagichning qismlarga ajratilgan jamlamasi 8-rasmda berilgan.



8-rasm. Havo quviri va isitgichning umumiy ko`rinishi

1-havo yurish quvuri; 2-havo yo`naltirish quviri; 3-shamollatish quviri; 4-isitgich jamlamasi; 5-plastmassali vtulka; 6-haroratni boshqarish richagi; 7-podshipnik; 8-richag kulisasi; 9-richag; 10-prujina; 11-shamollatgich richagi; 13-haroratni boshqarish kulisasi; 14-isitgich kulisasi; 15-isitgich richagi; 16-tros ulagichi; 17-isitgichning chap g`ilofi; 18-to`sqich; 19-shamollatgich to`sqichi; 20-haroratni boshqarish to`sqichi; 21-isitgichning o`ng g`ilofi; 22-g`ilof zichlagichi; 23-isitgich qopqog`i; 24-isitgich.

Avtomobil konditsioneri salondagi normal haroratni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Konditsioner tizimi salondagi ortiqcha namlik va issiqlikni fizikaviy xususiyatlariga asoslanib, me'yoriy haroratni ta'minlaydi. Konditsioner tizimi murakkab va qimmatbaho bo'lib quyidagilardan tashkil topgan:


Kompressor. Harakatni elektromagnitli mufta orqali olib, freonni siqib harakatga keltiradi.

Bug'latgich. Issiqlik yig'ish freon bug'lanishi hisobiga issiqlikni pasaytirib sovitadi.

Filtr-quritgich. Bosimni tenglashtirib freonni tozalaydi. Boshqarish bloki ikki usulda: qo'lda va avtomatik usulda amalga oshiriladi. Qo'lda (A/s) tugmani bosib kompressor ishga tushiriladi. Harorat ko'k va qizil ranga bo'yalgan dastak holatini o'zgartirish orqali rostlanadi. Havo oqimini yo'nalishi tugmalardagi belgiga qarab, kerak holatga o'zgartiriladi.

Avtomatik boshqarish tizimi, zamonaviy avtomobillarga o'rnatilib, ichki va tashqi haroratga bog'liq bo'lmay, haydovchining hohishi bo'yicha boshqarish blokidan tanlab, kerakli harorat avtomatik ravishda boshqariladi. Avtomatik boshqarish tizimiga quyidagilar kiradi: harorat datchiklari, elektron bloki, elektr bug'latgich, klapan, havo to'siqlari, ventil, parrakni aylanishini boshqarish dastagi va havoni salonga taqsimlash rejimi. Konditsioner ishlaganda dvigatel quvvatidan 6-10 ot kuchini olib, yonilg'i miqdorini 5-10% ortiqcha sarflashga olib keladi. Tizimda salonni sovitish uchun katta hajmdagi radiator va qo'shimcha elektrodvigatelli parrak o'rnatilgan.

Undan tashqari tizimda trubkalar, datchik, klapan, resiver-quritgich, kengaytirish trubkasi va reduksion klapanlar o'rnatilgan 9-rasm.



9-rasm. Avtomobil salonini isitish va shamollatish tizimi.

Salonni isitish tizimida quyidagi nosozliklar vujudga kelishi mumkin:

- dvigatel harorati me`yordan pastligi;
- tizimdan suvning oqishi;
- tizimning ifloslanishi;
- isitkich g`ilofining shikastlanishi yoki zichligini yo`qligi;
- havo to`siq (zaslonka) larni yuritmalarini ishlamasligi;
- elektrodvigatelni har-xil rejimda ishlamasligi;
- termostatning tiqilib qolishi va katta doira bo`yicha suyuqlikning yetarli aylanmasligi;
- elektrodvigatelni butunlay ishlamasligi;
- saqlagichni quyushi;

Salonni shamollatish tizimida quyidagi nosozliklar vujudga kelishi mumkin:

- havo quvirlarini ifloslanishi yoki shikastlanishi;
- havo to'siqlari (zaslonka)larni yuritmasini ishlamasligi;
- elektrodvigatelni ishlamasligi;
- deflektorni burilmasligi yoki shikastlanishi;
- saqlagichni kuyushi.

Salonni isitish va shamollatish tizimidagi asosiy nosozliklar.

Nosozlik belgilari	Ularni bartaraf etish usullari
I. Isitish parragi aylanmayapti	
1.1. Saqlagich kuygan.	Saqlagich almashtiriladi.
1.2. Elektr simi uzilgan.	Simlar ulanadi.
1.3. Sim ulanishda yaxshi tutashuv yo'qligi.	Sim tozalanib ishonchli qilib ulanadi.
1.4. Elektrodvigatel ishlamaydi.	Elektrodvigatel almashtiriladi.
1.5. Elektrodvigatel har xil rejimda ishlamayapti.	Rezistor (qarshilik) nosoz, tekshirilib, yaroqsiz bo'lsa almashtiriladi.
1.6. Elektrodvigatel ulanganda ishlamayapti.	Elektrodvigatelni ulagichi (vklyuchatel) nosoz, almashtiriladi.
II. Havo oqimi kuchsiz	
2.1. To'sqich (zaslonka) yoki uning yuritmalari shikastlangan.	Nosozlik aniqlanib, bartaraf etiladi, yaroqsiz bo'lsa almashtiriladi.
2.2. Havo uzatish kanali ifloslangan.	Havo kanali tozalanadi.
2.3. Isitkich yaxshi ishlamayapti.	Isitish radiatori va suv quvirlari tozalanadi.
2.4. Termostat ochilmayapti, tiqilib qolgan.	Tekshiriladi, yaroqsiz bo'lsa almashtiriladi.

2.5. Dvigatelning harorati me`yordan past, termostat va harorat datchigi nosoz.	Parrak past haroratda ham sovitish suyuqligini sovutyapti. Harorat datchigi va termostat almashtiriladi.
2.6. Isitkich g`ilofi va deflektorlarida zichlik yo`qolgan.	Tekshirilib, qistirmalari almashtiriladi va mahkamlanadi.
2.7. Havo quvirlri shikastlangan.	Ta`mirlanadi yoki almashtiriladi.

Salonni shamollatish, isitish – sovitish tizimiga TXK va nazorat qilish ishlarida quyidagi xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kerak.

Har qanday elektr jihozini yechib olish yoki o`rnatishda akkumulatorning (-) klemmasi ajratib qo`yilsin. Bu sim va boshqa elektr jihozlarini ishdan chiqishini va qisqa tutashuvdan saqlaydi.

Ishlab turgan elektr jihozlarini yechib olish man etiladi.

O`t oldirish kaliti doimo o`chgan holatda tursin.

Salonni sovitish tizimiga (konditsioner) ga TXK man etiladi, chunki undagi yuqori bosim va xladagentning kimyoviy ta`siri xavflidir. Ochiq alangadan foydalanish man etiladi, bu tizimning bosimini ortishi va alangalanishga olib kelishi mumkin.

Sovitish tizimidan xladagent chiqishi sezilsa, tizimni tezlikda ishlashini to`xtatib servis xizmatiga murojaat qiling! Salonni sovitish tizimini maxsus tayyorgarlikdan o`tgan mutaxassisgagina texnik xizmat ko`rsatishga ruxsat etiladi.

Avtokonditsionerni ishdan chiqmasligi va korroziya bo`lmasligi uchun haftada bir marta ishlatib turish kerak, chunki rezinali zichlagichlar ishdan chiqib qoladi [9-10].

V. TEXNOLOGIK QISM

V.1. Avtomobillarning salon inter`yeri va ularga texnik xizmat ko`rsatish.

Ma`lumki avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalar avtomobillarning ekspluatatsiya qilish mobaynida belgilangan texnik xizmat ko`rsatish me`yorlarini maxsus kitobcha ya`ni avtomobildan foydalanish yo`riqnomasida belgilab qo`yadi. Bu me`yorlar avtomobilning bosib o`tilgan yo`li kilometrlarda belgilangan bo`ladi kundalik texnik xizmat ko`rsatish bundan mustasnodir. Boshqa texnik xizmat ko`rsatish-1, texnik xizmat ko`rsatish-2, joriy ta`mirlash, mavsumiy ta`mirlash va kapital ta`mirlashlardir.

Biz hozir yuqoridagi mavsumiy texnik xizmat ko`rsatishni avtomobillarning salon inter`yeri misolida yoritib berishni lozim deb topdik. Chunki, avtomobil kuzovining ichki bo`shlig`i uning saloni deb yuritilib, haydovchini atomobilni salondan boshqaradi. Bevosita avtomobilning salonida haydovchi uchun boshqarish o`rganlari (qo`lda va oyoqda boshqariladigan), haydovchi uchun yilning issiq va sovuq fasllarida qulay boshqarish sharoitini ta`minlash maqsadida salonni issitish va sovutish tizimlari, haydovchi va yo`lovchilarni qulay joylashib, avtomobil tashqarisidan har xil shovqinlarni kamroq kiritilishini ta`minlovchi zichlagichlar, avtomobilda hosil bo`layotgan dinamik tebranishlarni o`rindiqlar orqali so`ndirib haydovchi va yo`lovchilarga uzatilmasligini ta`minlash kabi ko`plab salon elementlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Shu o`rinda inson avtomobildan yilning har faslida foydalanar ekan demak, bundan ko`rinadiki avtomobil saloniga yilning har fasli boshlanishi oldidan unga mavsumiy texnik xizmat ko`rsatilishini yanada amalga oshirish kerak deb hisoblayman. Avtomobilning tashqi va ichki tozaligi bu kundalik texnik xizmat ko`rsatish turiga kirib, avtomobil salonidagi o`rindiq materiallarini, plastmassa detallarning sinishi, eshik ushlagichlarining rangi o`zgarishi, salonni isitish va sovutish tizimi quvurlari ichidagi chang va boshqa narsalardan tozalash kabi elementlar yilning fasl boshlarida texnik xizmat ko`rsatilishi nazarda tutilmoqda.

Chunki, yuqoridagi salon elementlaridan haydovchi va yo`lovchilar doimiy foydalanadi. Foydalanish chog`ida noto`g`ri foydalanish yoki boshqa omillar

natijasida bu qismlar yeyilishi, sinishi, rangining o'zgarishi, yirtilishi kabi omillar kelib chiqadi. Shu o'rinda bu qismlarga texnik va kimyoviy tozalash hamda ta'mirlash ko'rsatilishi quyida keltiriladi.



10-rasm. Salon inter`yeri pol qismini texnik va kimyoviy tozalash.

Bunda maxsus kimyoviy soda suvga aralashtirilib, machalka yordamida pol g'ilofga ishqalanadi keyin chang yutgichdan foydalanib, g'ilof toza holga keltiriladi 5-rasm.

